

JIDUda Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining 2025-yil 13-sentabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida universitet boshqaruvini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi.

Fakultetlar va asosiy bo'linmalar ishini optimallashtirish, shuningdek, ixtisoslashtirilgan bo'limlar faoliyatini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Bu esa ta'lim sifatini yuksaltirish va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.